

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Umumiy ishlar bo‘yicha prorektor

S.G‘.Boboyev

2025-yil “29” 08

№ BD-60112400-(60810900. 1.26)

№ BD-60810900-1.22

2025 yil “29” avgust

O‘SIMLIKSHUNOSLIK

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000	-Ta‘lim
	800000	- Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya
Ta‘lim sohasi:	110000	-Ta‘lim
	810000	-Qishloq xo‘jaligi
Ta‘lim yo‘nalishi:	60112400	-Professional ta‘lim (60810900-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha)
	60810900	-Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi O'SShM 4410	O'quv yili 2025-2026	Semestr 7-8	Kreditlar 6-4	
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 6-4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'simlikshunoslik	120	180	300
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga dala ekinlaridan kam mablag' sarflab yuqori hosil yetishtira oladigan va qishloq xo'jaligi sohasini boshqara oladigan yuqori malakali mutaxassisni shakllantirish uchun talabalarga dala ekinlarining biologiyasiga asoslangan yetishtirish texnologiyasini, o'simlikshunoslikda fan yutuqlari va ilg'orlar tajribasini qo'llashni o'rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.</p> <ul style="list-style-type: none"> - Dala ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati va ularning kelib chiqish tarixini o'rgatish; - Dala ekinlarining biologiyasini, kelib chiqish markazlarini o'rgatish; - Dala ekinlarining yetishtirishning zamonaviy agrotexnikasini o'rgatish hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi. <p>Fanning asosiy vazifasi – O'simlikshunoslik fanining maqsadi dala ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan texnologiyalarni o'rgatish, dala ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kelib chiqish markazlari va shakllanish sharoitlarini, biologik xususiyatlarini, rivojlanish davrlarini va zamonaviy agrotexnologiyalarni chuqur o'zlashtirishni, ekinlarni yetishtirish jarayonida kuzatiladigan o'zgarishlarni ilmiy asoslash kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi.</p> <p>Ushbu fan dala ekinlarini yetishtirishda har bir ekinning biologik xususiyatlariga asoslangan holda har bir ekin uchun o'tmishdoshni to'g'ri tanlash, yerni va urug'ni ekishga tayyorlash, ekish, parvarishlash va hosilni yig'ishtirish, shuningdek, xorijda yetishtirish texnologiyalariga oid bilimlardan iborat bo'limlarni o'z ichiga olgan. Fanning rivojlanishi, istiqboli va respublikamizdagi iqtisodiy islohotlar bilan bog'liqligi tarmoqni rivojlantirishda fanning ahamiyatini qamraydi va talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p style="text-align: center;">1-MODUL. DONLI EKINLAR</p> <p style="text-align: center;">1-mavzu. O'simlikshunoslik fanining maqsadi va vazifasi, dala ekinlarining umumiy tavsifi va guruhlari</p> <p>O'simlikshunoslik fanining maqsadi va vazifasi. O'simlikshunoslik ilmiy fan sifatida. O'simlikshunoslikning respublikadagi ahvoli, istiqbollari. Dala ekinlarining guruhlarga bo'linishi.</p> <p style="text-align: center;">2-mavzu. O'simliklar biologiyasining shakllanish sharoitlari, hosilning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar</p> <p>O'simliklar biologiyasining shakllanish sharoitlari. O'simlikshunoslikda</p>			

qo'llaniladigan atamalar, o'g'itning o'lchovli miqdori. Hosilning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

3-mavzu. Kuzgi don ekinlari biologiyasi. Kuzgi ekinlarning nobud bo'lish sabablari va kurash choralari

Donli ekinlarning ahamiyati, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Kuzgi va bahorgi ekinlarning ahamiyati, biologik xususiyati. Kuzgi don ekinlarining qishga chidamliligi, chiniqish fazalari, Kuzgi ekinlarning qishda nobud bo'lish sabablari va kurash choralari.

4-mavzu. Bug'doy biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.

Bug'doy- ahamiyati, tarqalishi, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Bug'doy yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.

5-mavzu. Arpa va javdar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Arpa va javdar - ahamiyati, tarqalishi, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Arpa va javdar yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.

6-mavzu. Makkajo'xori va jo'xori biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Makkajo'xori va jo'xori ahamiyati, kelib chiqishi, tarixi, tarqalishi, hosildorligi. Biologik xususiyatlari, navlari va duragaylari, rivojlanish davrlari. Don va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.

7-mavzu. Sholi biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Sholi - ahamiyati, kelib chiqishi, ekin maydoni, hosildorligi. Biologik xususiyatlari va navlari. Sholi yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, sholipoyalarning tuzilishi, sug'orish tizimi, oziqlantirish, ekinlarni parvarishlash kasallik, zararkunandalar bilan kurashish, ko'chat qilib yetishtirish va hosilini yig'ish.

8-mavzu. Tariq biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Tariq - ahamiyati, tarqalishi, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Tariq yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.

9-mavzu. Don-dukkakli ekinlarning ahamiyati. No'xat biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Don-dukkakli ekinlarning ahamiyati, botanik tavsifi, biologik xususiyatlari,

oziq elementlarga talabi, kimyoviy tarkibi. Biologik azot to'g'risida tushuncha va ahamiyati. Biologik azot to'plashning muammolari.

No'xat - ahamiyati, kelib chiqishi, ekin maydoni, hosildorligi. Biologik xususiyatlari va navlari. No'xat yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.

10-mavzu. Ko'k no'xat va loviya biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Ko'k no'xat va loviya - ahamiyati, tarqalishi, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Ko'k no'xat va loviyani yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, donni tozalash va saqlash.

2-MODUL. YEM-XASHAK O'TLAR, ILDIZMEVALILAR VA TUGUNAKMEVALILAR

11-mavzu. Dukkakli yem-xashak ekinlar ahamiyati. Beda biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Dukkakli yem-xashak o'tlarning umumiy tavsifi, to'yimliliigi, tuproq unimdorligini oshirishdagi o'rni, guruh tarkibi. Beda - ahamiyati, ozuqalarining to'yimliliigi, agrotexnik ahamiyati, kelib chiqishi, ekin maydoni, urug' va pichan hosili. Sistematikasi, biologik xususiyati, navlari. Pichan va urug' yetishtirish texnologiyasi.

12-mavzu. Qo'ng'irboshli yem-xashak o'tlar ahamiyati. Sudan o'ti va afrika qo'nog'i–biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Qo'ng'irboshli yem-xashak o'tlarning ahamiyati, ko'p yillik va bir yillik o'tlar tarkibi, to'yimliliigi. Sudan o'ti va afrika qo'nog'i - ahamiyati, tarqalishi, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi, biologiyasi va navlari. Asosiy va takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar.

13-mavzu. Tugunakmevali ekinlarning ahamiyati. Kartoshka - biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Tugunakmevali ekinlar ahamiyati. Kartoshka - ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Kartoshkaning aynishi. Yetishtirish agrotexnikasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar.

14-mavzu. Batat biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Batat - ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi.

Batatning aynishi. Yetishtirish agrotexnikasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yor, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar.

15-mavzu. Ildizmevali ekinlarning ahamiyati. Qand lavlagi biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Ildizmevali ekinlar ahamiyati va tarkibi. Qand lavlagi ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, ekin maydoni, hosildorligi. Biologiyasi va navlari. Qand lavlagi yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yor, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar. Qand lavlagi urug'chiligi.

3-MODUL. MOYLI EKINLAR

16-mavzu. Moyli ekinlarning ahamiyati. Kungaboqar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Moyli ekinlar - xalq xo'jaligidagi ahamiyati umumiy tavsifi, tarkibi, sifat ko'rsatkichlari, guruhlari. Kungaboqar - ahamiyati, tarqalishi, tarixi, hosildorligi, biologiyasi, navlari. Urug' va silos tayyorlash uchun yetishtirish texnologiyasi - o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yor, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, urug'ni tozalash va saqlash.

17-mavzu. Maxsar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

maxsar ahamiyati, tarqalishi, tarixi, hosildorligi. Biologik xususiyati, navlari. Sug'oriladigan va lalmi yerlarda yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yor, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, urug'ni tozalash va saqlash.

18-mavzu. Kunjut biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Kunjut ahamiyati, tarqalishi, tarixi, hosildorligi. Biologik xususiyati, navlari. Sug'oriladigan va lalmi yerlarda yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yor, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar, urug'ni tozalash va saqlash.

19-mavzu. Yer yong'oq biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Yer yong'oq ahamiyati, tarqalishi, tarixi, hosildorligi. Biologik xususiyati, navlari. Yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yor, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish

uslub: muddati, kombaynlar, urug'ni tozalash va saqlash.

20-mavzu. Efirmoyli ekinlarning umumiy tavsifi. Zira biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Efirmoyli ekinlar vakillarining ahamiyati, tarqalishi, tarixi, hosildorligi. Biologik xususiyati. Zira biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar.

21-mavzu. Lavanda biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Lavandaning ahamiyati, tarqalishi, tarixi, hosildorligi. Biologik xususiyati. Lavanda yetishtirish texnologiyasi: o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar.

4-MODUL. TOLALI EKINLAR VA TAMAKI

22-mavzu. Lub-tolali ekinlar ahamiyati. Kanop biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Lub-tolali ekinlar - ahamiyati, tarkibi, hosildorligi, guruhlari. Kanop ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi, biologiyasi, navlari. Yetishtirish texnologiyasi-o'tmishdosh, yerni asosiy ishlash, o'g'itlash tizimi, ekish muddati, ekish uslubi, me'yori, chuqurligi. Ekinlarni parvarish qilish, sug'orish, begona o't va zararkunandalarga qarshi kurashish. Hosilni yig'ishtirish uslubi: muddati, kombaynlar.

23-mavzu. Tamaki – biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi

Tamaki - ahamiyati, bargning kimyoviy tarkibi, tarqalishi, tarixi, biologik xususiyati, hosildorligi, navlari. Tamaki ko'chatni yetishtirish - ekish muddati, me'yori, ko'chatni parvarishlash. Yerni ko'chat o'tqazishga tayyorlash, ko'chat o'tqazish, muddati, qalinligi, o'g'itlash, sug'orish, parvarishlash, gul to'plami va bachki novdalarni yulish. Tamaki barglarining yetilishi va ularni yig'ish, quritish.

24 - mavzu. Urug'shunoslik

Urug'shunoslikning vazifasi, urug'ning hayoti, rivojlanishi, tinim davri, yig'ilgandan keyingi jarayonlar, urug'larning turli sifat belgilari. Urug'likning pishish davrlari, urug'likka ekologik sharoitning ta'siri, agrotexnik tadbirlarning ta'siri. Urug'lik sifatiga davlat andozalari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Donli ekinlarning guruhlari
2. Donli ekinlarning umumiy morfologiyasi - ildiz majmuasi, poya, barg, gul, gul to'plam -boshqoq, ro'vak, meva tuzilishi

3. Bug‘doy sistematikasi, morfologiyasi
4. Arpa sistematikasi va morfologiyasi
5. Javdar sistematikasi va morfologiyasi
6. Suli va tritikale sistematikasi, morfologiyasi
7. Makkajo‘xori kenja turlari, morfologiyasi
8. Jo‘xori - sistematikasi, morfologiyasi
9. Sholi sistematikasi, morfologiyasi
10. Tariq va marjumak sistematikasi, morfologiyasi
11. Donli ekinlar ekish me‘yorini hisoblash va o‘simliklar qalinligini aniqlash. O‘g‘itlash me‘yorini aniqlash
12. Don-dukkakli ekinlarning umumiy morfologik xususiyatlari
13. No‘xat sistematikasi va morfologiyasi
14. Ko‘k no‘xat sistematikasi va morfologiyasi
15. Loviya sistematikasi va morfologiyasi
16. Yasmiq va burchoq sistematikasi va morfologiyasi
17. Don-dukkakli ekinlar ekish me‘yorini hisoblash va o‘simliklar qalinligini aniqlash. O‘g‘itlash me‘yorini aniqlash
18. Dukkakli yem-xashak o‘tlarning tavsifi. Bada sistematikasi va morfologiyasi
19. Qizil sebarga va bargak sistematikasi va morfologiyasi
20. Qashqarbeda sistematikasi va morfologiyasi
21. Shabdar va bersim turlari va morfologiyasi
22. Qo‘ng‘irboshli o‘tlarning tavsifi. Mastak turlari va morfologiyasi
23. Sudan o‘ti va qo‘noq turlari va morfologiyasi
24. Mogar va chumiza turlari va morfologiyasi
25. Tugunakmevaning anatomik tuzilishi. Kartoshka sistematikasi va morfologiyasi
26. Yer noki va batat sistematikasi, morfologiyasi
27. Ildizmevaning anatomik tuzilishi. Qand lavlagi sistematikasi va morfologiyasi
28. Moyli ekinlar guruhlari. Kungaboqar sistematikasi va morfologiyasi
29. Maxsar va kunjut-sistematikasi, morfologiyasi
30. Yer yongoq va kanakunjut sistematikasi, morfologiyasi
31. Efirmoyli ekinlar tavsifi. Zira sistematikasi va morfologiyasi
32. Lavanda sistematikasi va morfologiyasi
33. Tolali ekinlar guruhlari. Kanop sistematikasi va morfologiyasi
34. Tolali zig‘ir va tolali nasha sistematikasi, morfologiyasi
35. Tamaki-sistematikasi va morfologiyasi
36. Urug‘ sifatini aniqlash

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhda bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir.

IV. Fanning tarkibiy tuzilishi:

4.1 Maruza mashg‘ulotlari

Dars	Mavzular	Ma'ruza mashg'ulotlar rejasi	Soat
			ma'ruza mashg'ulotlari
7-semestr			
1.	O'simlikshunoslik fanining maqsadi va vazifasi, dala ekinlarining umumiy tavsifi va guruhlari	1.O'simlikshunoslik fanining ahamiyati, maqsadi va vazifasi. 2.Dala ekinlarining umumiy tavsifi. 3.Dala ekinlarining guruhlarga bo'linishi	2
2.	O'simliklar biologiyasining shakllanish sharoitlari, hosilning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar	1.Ekinlarning kelib chiqish markazlari. 2.Ekinlar hosildorligiga ta'sir etuvchi omillar	2
3.	Kuzgi don ekinlari biologiyasi. Kuzgi ekinlarning nobud bo'lish sabablari va kurash choralari	1.Kuzgi don ekinlarning ahamiyati va biologik xususiyatlari. 2.Kuzgi don ekinlarining qishga chidamliligi va chiniqish fazalari 3. Kuzgi ekinlarning qishda nobud bo'lish sabablari va kurash choralari.	2
4.	Bug'doy biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Bug'doyning ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2. Bug'doy biologiyasi va navlari 3.Bug'doy yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
5.	Arpa va javdar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Arpaning ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2.Arpa biologiyasi va navlari. 3.Arpa yetishtirish agrotexnologiyasi. 4.Javdarning ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 5.Javdar biologiyasi va navlari. 6.Javdar yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
6.	Makkajo'xori va jo'xori biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Makkajo'xori ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2.Makkajo'xori biologiyasi va navlari. 3. Makkajo'xori yetishtirish agrotexnologiyasi. 4.Jo'xori ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 5.Jo'xori biologiyasi va navlari. 6. Jo'xori yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
7.	Sholi biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1. Sholining ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2. Sholi biologiyasi va navlari. 3.Sholi yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
8.	Tariq biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Tariqning ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2.Tariq biologiyasi va navlari. 3.Tariq yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
9.	Don-dukakli ekinlarning	1.Don-dukakli ekinlarning ahamiyati.	2

	ahamiyati. No'xat biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	2.Biologik azot tushunchasi. Biologik azot to'plash muammolari 3.No'xatning ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 4.No'xat biologiyasi va navlari. 5.No'xat yetishtirish agrotexnologiyasi.	
10.	Ko'k no'xat va loviya biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1. Ko'k no'xat ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2. Ko'k no'xat biologiyasi va navlari. 3. Ko'k no'xat yetishtirish agrotexnologiyasi. 4. Loviya ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 5. Loviya biologiyasi va navlari. 6. Loviya yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
11.	Dukkakli yem-xashak ekinlar ahamiyati. Beda biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Em - xashak o'tlarning ahamiyati, guruhleri 2.Beda - ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi. 3.Beda biologiyasi va navlari. 4.Beda yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
12.	Qo'ng'irboshli yem-xashak o'tlar ahamiyati. Sudan o'ti va afrika qo'nog'i- biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1. Qo'ng'irboshli yem - xashak o'tlarning ahamiyati, guruhleri 2.Sudan o'ti va afrika qo'nog'i ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 3.Sudan o'ti va afrika qo'nog'i biologiyasi, navlari. 4.Sudan o'ti va afrika qo'nog'i yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
			24
8-semestr			
13.	Tugunakmevali ekinlarning ahamiyati. Kartoshka - biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Tugunakmevali ekinlarning ahamiyati. 2.Kartoshka ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 3. Kartoshka biologiyasi va navlari. 4.Kartoshka yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
14.	Batat biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Batat ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2. Batat biologiyasi va navlari. 3. Batat yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
15.	Ildizmevali ekinlarning ahamiyati. Qand lavlagi biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1. Ildizmevali ekinlarning ahamiyati. 2. Qand lavlagi ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 3. Qand lavlagi biologiyasi va navlari. 4.Qand lavlagi yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
16.	Moyli ekinlarning ahamiyati. Kungaboqar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Moyli ekinlarning ahamiyati. 2.Kungaboqar ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 3 Kungaboqar biologiyasi va navlari. 4.Kungaboqar yetishtirish agrotexnologiyasi.	2

17.	Maxsar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Maxsar ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2.Maxsar biologiyasi va navlari. 3.Maxsar yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
18.	Kunjut biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Kunjut ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2.Kunjut biologiyasi va navlari. 3.Kunjut yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
19.	Yer yong‘oq biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Yeryong‘oq ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2. Yeryong‘oq biologiyasi va navlari. 3.Yeryong‘oq yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
20.	Efirmoyli ekinlarning umumiy tavsifi. Zira biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Efirmoyli ekinlarning umumiy tavsifi. 2.Zira ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 3.Zira biologiyasi va navlari. 4.Zira yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
21.	Lavanda biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Lavanda ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2.Lavanda biologiyasi va navlari. 3.Lavanda yetishtirish agrotexnologiyasi.	
22.	Lub-tolali ekinlar ahamiyati. Kanop biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Lub-tolali ekinlar ahamiyati. 2.Kanop ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 3.Kanop biologiyasi va navlari. 4.Kanop yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
23.	Tamaki biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	1.Tamaki ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va hosildorligi. 2.Tamaki biologiyasi va navlari. 3.Tamaki yetishtirish agrotexnologiyasi.	2
24.	Urug‘shunoslik	1.Urug‘shunoslikning maqsadi va vazifasi. 2.O‘zbekistonda urug‘lik sifatini nazorat qilish 3.Urug‘lik sifatiga agrotexnik tadbirlarning ta’siri 4.Urug‘lik namunalari	2
			24
Jami:			48

4.2 Amaliy mashg‘ulotlar

Dars	Mavzular	Amaliy mashg‘ulotlar rejasi	Soat
			amaliy mashg‘ulotlar
7-semestr			
1.	Donli ekinlarning guruhleri	1.Donli ekinlar guruhleri 2.Birinchi va ikkinchi guruh don ekinlarining farqlari	2
2.	Donli ekinlarning umumiy morfologiyasi - ildiz majmuasi, poya, barg, gul,	1.Donli ekinlar morfologiyasi (Keys, Aqliy xujum)	2

	gul to'plam -boshq, ro'vak, meva tuzilishi	2.Donli ekinlani ildiz, barg, poya tuzilishi 3. Donli ekinlarni gul, gul to'plami, boshq va ro'vak tuzilishlari	
3.	Bug'doy sistematikasi, morfologiyasi	1.Bug'doy sistematikasi 2.Bug'doy morfologiyasi	2
4.	Arpa sistematikasi va morfologiyasi	1.Arpa sistematikasi 2.Arpa morfologiyasi	2
5.	Javdar sistematikasi va morfologiyasi	1.Javdar sistematikasi 2.Javdar morfologiyasi	2
6.	Suli va tritikale sistematikasi, morfologiyasi	1. Suli sistematikasi 2. Suli morfologiyasi	2
7.	Makkajo'xori kenja turlari, morfologiyasi	1. Makkajo'xori sistematikasi 2. Makkajo'xori morfologiyasi	2
8.	Jo'xori - sistematikasi, morfologiyasi	1. Jo'xori sistematikasi 2. Jo'xori morfologiyasi	2
9.	Sholi sistematikasi, morfologiyasi	1. Sholi sistematikasi 2. Sholi morfologiyasi	2
10.	Tariq va marjumak sistematikasi, morfologiyasi	1. Tariq sistematikasi 2. Tariq morfologiyasi	2
11.	Donli ekinlar ekish me'yorini hisoblash va o'simliklar qalinligini aniqlash. O'g'itlash me'yorini aniqlash	1. Donli ekinlar ekish me'yorini hisoblash va o'simliklar qalinligini aniqlash. 2. Donli ekinlarning o'g'itlash me'yorini aniqlash.	
12.	Don-dukkakli ekinlarning umumiy morfologik xususiyatlari	1.Don-dukkakli ekinlarning vakillari 2.Don-dukkakli ekinlarning umumiy morfologik xususiyati	2
13.	No'xat sistematikasi va morfologiyasi	1. No'xat sistematikasi 2. No'xat morfologiyasi	2
14.	Ko'k no'xat sistematikasi va morfologiyasi	1. Ko'k no'xat sistematikasi 2. Ko'k no'xat morfologiyasi	2
15.	Loviya sistematikasi va morfologiyasi	1. Loviya sistematikasi 2. Loviya morfologiyasi	2
16.	Yasmiq va burchoq sistematikasi va morfologiyasi	1. Yasmiq va burchoq sistematikasi 2.Yasmiq va burchoq morfologiyasi	2
17.	Don-dukkakli ekinlar ekish me'yorini hisoblash va o'simliklar qalinligini aniqlash. O'g'itlash me'yorini aniqlash	1. Don-dukkakli ekinlar ekish me'yorini hisoblash va o'simliklar qalinligini aniqlash. 2. Don-dukkakli ekinlarning o'g'itlash me'yorini aniqlash.	
18.	Dukkakli yem-xashak o'tlarning tavsifi. Bada sistematikasi va morfologiyasi	1. Dukkakli yem-xashak o'tlarning tavsifi. 2. Bada sistematikasi 3. Bada morfologiyasi	2
19.	Qizil sebarga va bargak sistematikasi va morfologiyasi	1. Qizil sebarga va bargak sistematikasi 2. Qizil sebarga va bargak morfologiyasi	2
20.	Qashqarbada sistematikasi va morfologiyasi	1. Qashqarbada sistematikasi 2. Qashqarbada morfologiyasi	2
21.	Shabdar va bersim turlari va morfologiyasi	1. Shabdar va bersim turlari 2. Shabdar va bersim morfologiyasi	2
22.	Qo'ng'irboshli o'tlarning tavsifi. Mastak turlari va morfologiyasi	1. Qo'ng'irboshli o'tlarning tavsifi 2. Mastak turlari va morfologiyasi	2

	morfologiyasi		
23.	Sudan o'ti va qo'noq turlari va morfologiyasi	1. Sudan o'ti va qo'noq turlari 2. Sudan o'ti va qo'noq morfologiyasi	2
24.	Mogar va chumiza turlari va morfologiyasi	1. Mogar va chumiza 2. Mogar va chumiza morfologiyasi	2
			48
8-semestr			
25.	Tugunakmevaning anatomik tuzilishi. Kartoshka sistematikasi va morfologiyasi	1. Tugunakmevaning anatomik tuzilishi 2. Kartoshka sistematikasi 3. Kartoshka morfologiyasi	2
26.	Yer noki va batat sistematikasi va morfologiyasi	1. Yer noki va batat sistematikasi 2. Yer noki va batat morfologiyasi	2
27.	Ildizmevaning anatomik tuzilishi. Qand lavlagi sistematikasi va morfologiyasi	1. Ildizmevaning anatomik tuzilishi 2. Qand lavlagi sistematikasi 3. Qand lavlagi morfologiyasi	2
28.	Moyli ekinlar guruhlari. Kungaboqar sistematikasi va morfologiyasi	1. Moyli ekinlar guruhlari 2. Kungaboqar sistematikasi 3. Kungaboqar morfologiyasi	2
29.	Maxsar va kunjut-sistematikasi, morfologiyasi	1. Maxsar va kunjut sistematikasi 2. Maxsar va kunjut morfologiyasi	2
30.	Yer yongoq va kanakunjut sistematikasi, morfologiyasi	1. Yer yongoq, kanakunjut sistematikasi 2. Er yongoq, kanakunjut morfologiyasi	2
31.	Efirmoyli ekinlar tavsifi. Zira sistematikasi va morfologiyasi	1. Efirmoyli ekinlar tavsifi 2. Kashnich sistematikasi 3. Kashnich morfologiyasi	2
32.	Lavanda sistematikasi va morfologiyasi	1. Zira sistematikasi 2. Zira morfologiyasi	2
33.	Tolali ekinlar guruhlari. Kanop sistematikasi va morfologiyasi	1. Tolali ekinlar guruhlari 2. Kanop sistematikasi 3. Kanop morfologiyasi	2
34.	Tolali zig'ir va tolali nasha sistematikasi, morfologiyasi	1. Tolali zig'ir sistematikasi 2. Tolali zig'ir morfologiyasi 3. Tolali nasha sistematikasi 4. Tolali nasha morfologiyasi	2
35.	Tamaki sistematikasi va morfologiyasi	1. Tamaki sistematikasi 2. Tamaki morfologiyasi	2
36.	Urug' sifatini aniqlash	1. Urug' sifatini aniqlash 2. Urug'lik uchun namuna olish tartibi 3. Urug'larning tozaligi 4. 1000 ta don vaznini aniqlash	2
			24
Jami:			72

V. Kurs loyihasi uchun taxminiy mavzular:

1. Sug'oriladigan yerlarda kuzgi bug'doy yetishtirish texnologiyasi
2. Sug'oriladigan yerlarda bahorgi bug'doy yetishtirish texnologiyasi
3. Lalmikor yerlarda kuzgi bug'doy yetishtirish texnologiyasi
4. Lalmikor yerlarda bahorgi bug'doy yetishtirish texnologiyasi
5. Bahorgi arpa yetishtirish texnologiyasi

6. Kuzgi arpa yetishtirish texnologiyasi
7. Kuzgi javdar yetishtirish texnologiyasi
8. Triticale yetishtirish texnologiyasi
9. Suli yetishtirish texnologiyasi
10. Makkajo‘xori yetishtirish texnologiyasi
11. Jo‘xori yetishtirish texnologiyasi
12. Tariq yetishtirish texnologiyasi
13. Sholi yetishtirish texnologiyasi
14. Sholini ko‘chat usulida yetishtirish texnologiyasi
15. Marjumak yetishtirish texnologiyasi
16. Makkajo‘xorini takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasi
17. No‘xat (jaydari no‘xat) yetishtirish texnologiyasi
18. Loviya yetishtirish texnologiyasi
19. Soya yetishtirish texnologiyasi
20. Ko‘k no‘xat yetishtirish texnologiyasi
21. Yasmiq yetishtirish texnologiyasi
22. Soyani takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasi
23. Burchoq yetishtirish texnologiyasi
24. Mosh yetishtirish texnologiyasi
25. Moshni takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasi
26. Kartoshka yetishtirish texnologiyasi
27. Yer noki (topinambur) yetishtirish texnologiyasi
28. Qand lavlagi yetishtirish texnologiyasi
29. Xashaki lavlagi yetishtirish texnologiyasi
30. Xashaki sabzi yetishtirish texnologiyasi
31. Bedani pichan uchun yetishtirish texnologiyasi
32. Bedani urug‘lik uchun yetishtirish texnologiyasi
33. Qizil sebarga yetishtirish texnologiyasi
34. Qashqarbeda va bargak yetishtirish texnologiyasi
35. Ko‘p yillik g‘allasimon o‘tlar yetishtirish texnologiyasi
36. Sudan o‘ti yetishtirish texnologiyasi
37. Kungaboqar yetishtirish texnologiyasi
38. Maxsar yetishtirish texnologiyasi
39. Kunjut yetishtirish texnologiyasi
40. Yeryong‘oq yetishtirish texnologiyasi
41. Kanop yetishtirish texnologiyasi
42. Moyli zig‘ir yetishtirish texnologiyasi
43. Kanakunjut yetishtirish texnologiyasi
44. Raps yetishtirish texnologiyasi
45. Efir moyli ekinlarni yetishtirish texnologiyasi
46. Kanop yetishtirish texnologiyasi
47. Tolali zig‘ir yetishtirish texnologiyasi
48. Tolali nasha yetishtirish texnologiyasi
49. Jut yetishtirish texnologiyasi
50. Tamaki ko‘chatini yetishtirish texnologiyasi
51. Tamakini dalada yetishtirish texnologiyasi

Tavsiya etilgan ushbu mavzular umumiy bo‘lib, bir nechta kichik mavzulardan tashkil topgan va ular kurs loyihasi bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmada

batafsil beriladi.

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'simliklarni o'g'itlash tizimining biologik asoslari
2. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosili va uning sifatiga ta'sir qiladigan omillar
3. Lalmi yerlarda kuzgi va bahorgi bug'doy yetishtirish texnologiyasi
4. Sholini ko'chat usulida yetishtirish texnologiyasi
5. Marjumak biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
6. Marjumak sistematikasi va morfologiyasi
7. Soya biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
8. Soya sistematikasi va morfologiyasi
9. Soyani takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasi
10. Soyani ozuqa uchun yetishtirish texnologiyasi
11. Lyupin biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
12. Lyupin sistematikasi va morfologiyasi
13. Vika biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
14. Vika sistematikasi va morfologiyasi
15. Noan'anaviy dukkakli-don ekinlari yetishtirish texnologiyasi
16. Dala va yem-xashak ekinlarini qo'shib ekilganda biologik jihatdan mutanosibli
17. Dala va yem-xashak ekinlarini qo'shib ekishda urug' ekish me'yorlari va nisbatlarini hisoblash
18. Makkajo'xorini don-dukakli ekinlar bilan qo'shib ekish texnologiyasi
19. Shabdar biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
20. Topinambur biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
21. Topinambur sistematikasi va morfologiyasi
22. Xantal biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
23. Xantal sistematikasi va morfologiyasi
24. Rijik biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
25. Rijik sistematikasi va morfologiyasi
26. Kashnich biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
27. Kashnich sistematikasi va morfologiyasi
28. Chufa biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
29. Chufa sistematikasi va morfologiyasi
30. Yalpiz biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
31. Yalpiz sistematikasi va morfologiyasi
32. Rayxon biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
33. Rayxon sistematikasi va morfologiyasi
34. Jut biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
35. Jut sistematikasi va morfologiyasi
36. Rami biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi
37. Rami sistematikasi va morfologiyasi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari: Talaba bilishi kerak:</p> <p>O'simlikshunoslikning hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari, o'simliklarning aholini oziq-ovqat, chorvani ozuqa va sanoatni xomashyo bilan ta'minlashdagi ahamiyati, dala ekinlarining shakllanish sharoiti va kelib chiqish markazlari, dala ekinlarining o'sish va rivojlanish xususiyatlari, dala ekinlarini parvarishlash agrotexnologiyalari, yetishtirilgan hosilni o'z vaqtida va sifatli qilib yig'ib olish tadbirlari to'g'risida ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;</p> <p>Tahlil jihatidan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - dala ekinlarining sistematikasi va morfologiyasini; - dala ekinlarining biologiyasini, tashqi muhit omillariga talabini; - rejalashtirilgan hosil uchun urug' ekish va o'g'it me'yorini aniqlash usullarini; - o'tmishdosh ekinlarni to'g'ri tanlash, yerni ekish uchun tayyorlash usullarini; - dala ekinlarining zamonaviy yetishtirish texnologiyalarini; - qo'llaniladigan qishloq xo'jalik mashinalari va gerbitsidlar turlarini; - tumanlashtirilgan ekinlarning navlarini; - ekinlarning biologik hosilini, hosildorligini aniqlash uslubini <i>bilishi va ularni foydalana olishi;</i>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - interfaol keys - stadilar; - amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; - blis-so'rov; - guruhlarda ishlash; - taqdimotlarni qilish; - jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p> <p>Baholash</p> <p>Fanning yakuniy bahosi uchta yo'nalishdagi baholarga asoslanadi:</p> <p>(1) Dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik va faol ishtirok etish (15%).</p> <p>Dars jarayonida muntazam ishtirok etishdan tashqari, talabalar darslar boshlanishidan oldin onlayn o'quv materiallari bilan tanishgan bo'lishlari talab etiladi. Har bir talabadan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish talab qilinadi.</p> <p>(2) Auditoriyadagi mashg'ulotlar (15%)</p> <p>Har bir ma'ruza va amaliyot mashg'ulot bo'yicha topshiriqlar keying dars mashg'ulotiga qadar bajarilib topshirilishi lozim. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida berilgan topshiriqlarni bajarish (30%).</p> <p>(3) Yakuniy baholash (40%) (Baholash turi, vaqti, baholash mezonlari)</p> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • joriy nazorat (JN) - o'quv semestr davomida dasturining amaliy,

laboratoriya, seminar mashg'ulotlari bo'yicha talabalarning bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi 5 baholik tizim orqali baholanadi.

- **oralik nazorat (ON)** - o'quv semestr davomida dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir, ikkimarta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch so'z va iboralarga asoslangan yozma, og'zaki, test va h.k. shakllarda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi buyicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli fan buyicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi yakuniy nazorat turini o'tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli fan bo'yicha professor-o'qituvchilari jalb qilinishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasida yakuniy nazorat turlarini o'tkazilishi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi tomonidan doimiy ravishda o'rganib boriladi. Bunda nazorat turlarini o'tkazilish tartibi buzilganligi aniqlangan hollarda, o'tkazilgan nazorat turlarining natijalari bekor qilinishi hamda tegishli yakuniy nazorat turi qaytadan o'tkazilishi mumkin.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning baho mezoni asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi 5 baholik tizim orqali ifodalanadi.

Talaba mustaqil xulosa va qarorlar qabul qila olsa, ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritsa, olgan bilimni amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi xamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega deb topilganda- **5(a'lo)** baho bilan baholanadi.

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega deb topilganda - **4 (yaxshi)** baho baholanadi.

Talaba olgan bilimni amalda qullay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi xamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega deb topilganda - **3(qoniqarli)** baho baholanadi.

Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) buyicha tasavvurga ega emas deb topilganda - **2(qoniqarsiz)** baho bilan baxolanadi.

- Joriy nazorat va oralik nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi buyicha talabaning bilimni baxolash tegishli fan buyicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

- Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan

	<p>o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi.</p> <p>Talabani oralik nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.</p> <p>JN, ON va YaN turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan baholash nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi.</p> <p>Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.</p> <p>Joriy nazorat va oralik nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi buyicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.</p> <p>Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi buyicha "2"(qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.</p> <p>Talaba baholash natijasidan norozi bulgan taqdirda, baholash natijasi e'lon qilingan vaktidan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko'rib chiqilishi lozim.</p> <p>Talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega. Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko'rib chiqib, uning natijasi buyicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o'zlashtirgani yoki o'zlashtira olmaganini ko'rsatiladi.</p> <p>Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta'minlaydi.</p> <p>Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonini</p> <p>Yakuniy nazorat turi semestr yakunida tegishli fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. (Yakuniy nazoratni yozma, og'zaki, test va boshqa usullarda olish mumkin.)</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2018. -407 b. 2. Atabayeva X.N., Qodirxo'jayev O. O'simlikshunoslik. Darslik. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2006. -180 b. 3. Atabaeva Kh.N., Xudaykulov J.B. , Nurbekov A.I., Kassam A. Plant Science. Textbook. Tashkent, "Fan ziyosi", 2021 y. -398 b. 4. Atabaeva X.N., Umarova N.S. Rasteniyevodstvo. Uchebnik. Tashkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2022.-516 s. 5. Atabaeva X.N., Umarova N.S. Rasteniyevodstvo. Uchebnik. Tashkent, TashGAU "Taxririyyat-nashriyyot", 2016. -380 s. 6. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik. O'quv qo'llanma. Samarqand, 2008. -420 b. 7. Umarova N.S. Rasteniyevodstvo. Uchebnoe posobie. Tashkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2023. -280 s. 8. Margaret J. McMahon, Anton M. Kofranek, Vinsent E. Rubatzky. Plant science: growth, development and utilization of cultivated plants. Fifth edition. NJ,

	<p>USA. "Copyright", 2011.-415 p.</p> <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning tarrahiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Toshkent, 2022 yil. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. Toshkent, 2019 yil. 3. Mirzaev O. Yem-xashak yetishtirish. Darslik. T.: Yangi nashr.2014.-384.b. 4. Oripov R., Xalilov N. - O'simlikshunoslik. O'quv qo'llanma. T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007 yil. 384 b. 5. Teshayev Sh. Sulaymanov B. va boshq. Paxtachilik ma'lumotnomasi. "Fan va texnologiya" nashriyoti, Toshkent 2016. 540 b. 6. Yakubjonov O., Tursunov S., Muqimov Z. –Donchilik. Darslik. Toshkent, "Yangi asr avlodi", 2009. 7. Johann Vollman, Istvan Rajcan. Oil Crops. London. New York. "Springer Science+Business Media, LLC", 2009.-548 p. 8. Elektron darsliklar, ilmiy monografiyalari, maqolalar, doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari, ilmiy - amaliy anjumanlar, ma'ruzalar to'plamlari, gazeta va jurnallar, statistik ma'lumotlar to'plamlari, ma'ruza matnlarining elektron versiyasi. <p>Axborot manbalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portali 2. https://lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 3. https://www.agro.uz/charts/ - Statistika ma'lumotlari 4. www.ziyonet.uz - jamoat ta'lim portal 5. https://biobee-honey.com/sunflower-honey.html 6. http://www.beefolks.com/products/c83-cotton-honey/
7.	<p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 202__ yil "___" _____ dagi ___ -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p>Fan/modul uchun ma'sul: A.A.Iminov- O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasida professori, q.x.f.d. M.R.Zuxriddinov - O'simlikshunoslik va moyli ekinlar kafedrasida assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar: Jumaboyev Z.M – Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, O'simlikshunoslik, soya va moyli ekinlar kafedrasida professori, q.x.f.d. Allanov X.K – ToshDAU Dehqonchilik va melioratsiya kafedrasida professori, q.x.f.d.</p>

Ro'yxatga olindi: № BD-60112400-60810900. 1.26

202__ yil "___" _____

**O'QUV DASTURLARNI TOP-300 TALIK REYTINGGA KIRGAN
UNIVERSITETLAR TAJRIBASIDA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HOLATI**

№	OTM nomi	QS	THE	TOP-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimcha mavzular	Mazkur dasturdagi mavzu nomi	Havolalar
1	Россия Федерация Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова	105	107	Тема 1. Зерновые хлеба группы. Пшеница. Тема 2. Зерновые хлеба 2 группы. Кукуруза. Тема 3. Крупяные культуры.	4-mavzu: Donli ekinlarning umumiy tavsifi. Bug'doy ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi 6-mavzu: Makkajo'xori ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi 7-mavzu: Sholi ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi.	https://soil.msu.ru/attachments/article/4505/%D0%98%D0%91_6%D0%A0%D0%B0%D1%81%D1%82%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4%D1%81%D1%82%D0%B2%D0%BE%203++.pdf
2	Massey University	239	501-600	Plants as sources of food and beverage, medicine, fibres and dyes, with emphasis on their origin, domestication and the role of plant breeding to improve plants for human use. The physiological effects of active plant compounds on the body. The cultural and geographic origins of commercially important plants.	10-mavzu: Ko'k no'xat va loviya ahamiyati, biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi	https://www.massey.ac.nz/study/courses/plants-and-people-120219/
3	University of Wisconsin-Madison	116	56	Establishment, management, harvesting and utilization of forage crops for use as hay, pasture and silage. Emphasis on cool season perennial grasses and legumes.	12-mavzu: Yem-xashak o'tlar tavsifi. Sudan o'ti va beda biologiyasi, yetishtirish texnologiyasi	https://guide.wisc.edu/courses/plantsci/

